



## 2019 yilning yanvar oyida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **577,1 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi – **101,4 % ni** tashkil etdi;
- Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi o`rtacha **701,4 ming.so`mni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **111,4 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **23,5 % ni** tashkil etib, aholi jon boshiga o`rtacha **164,6 ming.so`mga** to`gri keldi.
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **34,4 %**


2019 yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 577,1 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 101,4 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 5,5 % ga, qayta ishlash sanoati 1,8 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash 0,8 % ga o'sishi hisoblandi.

### 2019 yilning yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, foizda



## 2019 yilning yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'rishiga qo'shgan hissasi



### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalaridan tomonidan 2019 yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % ni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajm indeksi 93,7 % ni tashkil etganni kuzatish mumkin.



## Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

Qayta ishlash sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 247,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 42,8 % ni) tashkil etdi.


2019 yilning yanvar oyida sanoatning mazkur tarmog'ida sanoat ishlab chiqarish indeksi 101,8 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Hususan 2018 yilning yanvar oyiga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarishning yuqori o'sish indeksi quyidagi faoliyat turlarida kuzatilmoqda, boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarish indeksi 110,8 % ni, teri charm mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 101,7 % ni, qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi 104,3 % ni hamda boshqa toifalarga kiritilmagan






mashina va uskunalar ishlab chiqarish indeksi 104,6 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 4,5 % ni (2018 yilning yanvar oyida - 4,7 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 6,3 % (5,3 %), o'rta-quyi texnologiyali - 9,3 % (8,2%) va quyi texnologiyali - 79,9 % (81,8 %) tashkil etdi.

### Yanvar oyida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %



**Yanvar oyrida Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018 yil	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil	2018 yil yanvariga nisbatan, %
7,0	<p align="center"><b>Paxta tolasi, ming tonna</b></p> 	4,9	70,4
11,1	<p align="center"><b>Paxta urug'i, ming tonna</b></p> 	7,6	68,5
374,0	<p align="center"><b>Kalava ip, tonna</b></p> 	371,0	99,2
18,1	<p align="center"><b>Sellyuloza, ming kg 90%</b></p> 	136,7	754,5
2,8	<p align="center"><b>Un, ming tonna</b></p> 	3,6	129,8

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash  
va havoni kondittsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 299,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 51,9 % ni) tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davriga nisbatan



elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi indeksi 100,8 % ga oshganligi kuzatildi.

2019 yilning yanvar oyida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hajmi indeksi 101,5 % ga va gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmi indeksi 73,3 % ni tashkil etgani kuzatildi.

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018 yilning yanvarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilning yanvarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
1,60	<p align="center"><b>Elektroenergiya, mlrd kVt/s</b></p> 	1,62	101,3
12,3	<p align="center"><b>Issiqlik energiyasi, mln Gkal</b></p> 	14,6	118,7

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 29,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,1 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat



ishlab chiqarish indeksi 105,0 % ni tashkil etgani kuzatildi.

Shuningdek 2018 yilning yanvar oyiga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari 19,4 % ga oshganligi kuzatildi.

**Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018 yilning yanvarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yilning yanvarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	---	---	-------------------

**Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari, mln so'mda**

716,9



858,2

119,7

**Shahar ho'jaligining qayta foydalanishga yaroqsiz havfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln so'mda**

115,0




620,0

539,1

**Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.**


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 135,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar oyiga nisbatan 11,4 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 23,5 % ni tashkil etdi.

## 2019 yilning yanvar- dekabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2018 yilning yanvar oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 56,4 % dan 2019 yilning yanvar oyida 60,8 % ga oshishi kuzatilmoqda.

## Yirik va kichik biznes sub'ektlari tomonidan iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi, %




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari 4,3 % ni (2018 yilning yanvar oyida 6,6 %) tashkil etdi.

### Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri 282,3 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 48,7 % ulushini), Sirdaryo tumani 88,8 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 15,4 % ulushini), Guliston shahri 60,5 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 10,5 % ulushini), Boyovut 35,3 mlrd so'm (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 6,1 % ulushini) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### 2019 yilning yanvar oyida hududlarning sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi




Shu bilan birga eng kam ulush Sardoba tumani 3,9 mlrd so'm (1,7 %), Xovos tumani 5,4 mlrd so'm (1,7 %) va Guliston tumani 4,6 mlrd so'm (1,5 %) va to'g'ri keladi.



## 2019 yilning yanvar oyida hududlarda axoli jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 701,4 ming so'mni tashkil etib tuman va shaharlarning tabaqalanishi taxlil qilinganda, Shirin shahrida 15203,9 ming so'm, Sirdaryo tumanida 712,1 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

### 2019 yilning yanvar oyida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi,




Tuman va shaharlar kesmida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti yuqoriligi quyidagi tumanlarda kuzatilgan, Xovos tumanida 133,8%, Boyovut tumanida 133,0 % hamda Oqoltin tumanida 124,6 %. Shu bilan birga o'sish sura'ti kamayishi Sardoba tumanida 70,3% va Sayhunobod tumanida 68,7% ni tashkil etgan.

## Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

2019 yilning yanvar oyida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 198,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan (jami sanoat mahsulotlarining 34,4 foizi) yoki 2018 yilning tegishli davriga nisbatan 104,6 foizni tashkil qilgan.

### 2019 yilning yanvar oyida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati



Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi  
Sanoat statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (0371) 230-86-23